

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov
akademiya Kengashi raisi



H-M.Isoqov

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi
Odil sudlov akademiyasi Kengashi majlisining
3-son BAYONNOMASI

2025 yil 9 oktyabr

Toshkent shahri

Raislik etuvchi: H-M.Isoqov yu.f.n., professor – Odil sudlov akademiyasi Kengashi raisi,

Ishtirok etdilar: Odil sudlov akademiyasi Kengashining a'zolari: DSc, professor D.U.Aripov, yu.f.d., professor I.I.Nasriyev, yu.f.n., dotsent S.B.Xolbayev, U.Q.Mingboev, yu.f.d., professor Sh. Haqnazarov onlayn tarzda (Zoom orqali): A.Jalilov yu.f.n., dotsent M.P.Qalandarova, yu.f.d., professor M.X.Rustambayev., yu.f.d., professor Y.V.Kalenko., yu.f.d., professor M.Rahmonqulov, Sh.Polvonov.

Kengash kotibi – yu.f.f.d (PhD), F.Madiyev.

Majlisga taklif etilganlar: Odil sudlov akademiyasi tarkibiy bo'lim rahbarlari.

K U N T A R T I B I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Kengashi kotibini saylash;
2. O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjayevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqish;

3. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mablag'i hisobidan Akademiya almanaxini chop etish;

4. Qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga beriladigan sertifikat namunasini tasdiqlash;

5. Odil sudlov akademiyasi professor-o'qituvchilaridan Berdiyarov Rahmatjon Tojinorovich, Madiev Faxriddin Xoshim o'g'li, Obidov Tolib Avazxonovichlarni dotsent vazifasini bajaruvchi unvoniga tavsiya etish;

6. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasiga professor-o'qituvchilar lavozimlariga nomzodlarni tanlash;

Raislik etuvchi kun tartibidagi **birinchi masala** yuzasidan so'zlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 avgustdagi "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-141-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ustaviga muvofiq Akademiya Kengashining Kengashi tarkibi akademiya rektori va prorektorlari, kafedra mudirlari, boshqa tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, ta'lim va yuridik sohalardagi etakchi olimlar va mutaxassislardan iborat tarkibda tashkil etilishi belgilanganligi va shunga ko'ra, Kengashi tarkibi Odil sudlov akademiyasi rahbariyati va professor-o'qituvchilaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va boshqa tashkilotlarda tajribaga ega bo'lgan mutaxassis olimlaridan iborat bo'lgan tartibda shakllantirilganligini ta'kidlab, hozirda Kengash a'zosi, Iqtisodiy-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri S.Xolboyev vaqtincha kengash kotibligini bajarib kelayotganligini, ish yuklamasining ortib ketganligi sababli, Kotib vazifasini bajarish uchun Akademiya yangi qabul qilingan xodimlardan birini tayinlash va Kengash a'zosi sifatida tarkibga Inson huquqlari, xalqaro huquq va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi yu.f.f.d(PhD) Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'lini kiritish va Kengash kotibligiga tayinlash taklifini bildirdi.

Raislik etuvchi H-M.Isoqov o'z fikrini yakunlagandan so'ng, mazkur masala yuzasidan kimda qanday taklif va mulohazalar borligini so'rab, majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolariga murojaat qildi. Kengash a'zolarida qo'shimcha taklif va mulohazalar bo'lmadi.

Shundan so'ng, raislik etuvchi Kengash a'zolaridan S.Xolboyevni Kengash kotibligidan ozod qilib Kengash a'zolisiga qoldirish, Kengash tarkibiga yangi a'zo sifatida Inson huquqlari, xalqaro huquq va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi yu.f.f.d(PhD) Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'lini kiritish va Kengash kotibi sifatida tayinlash masalasi yuzasidan ovoz berishlarini so'rab, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. Iqtisodiy-huquqiy fanlar kafedrası mudiri S.Xolboyev Kengash Kotibligi vazifasidan ozod qilinsin.

2. Inson huquqlari, xalqaro huquq va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi yu.f.f.d(PhD) F.Madiyev Odil sudlov akademiyasi Kengashi a'zoliciga qabul qilinsin.

3. Inson huquqlari, xalqaro huquq va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi yu.f.f.d(PhD) Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li Odil sudlov akademiyasi Kengashi kotibi etib tayinlansin.

Raislik qiluvchi H-M.Isoqov kun tartibidagi **ikkinchi masala** yuzasidan so'z olib, majlis ishtirokchilarini O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedrası mudiri yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjaevning 2026 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqilishini bildirdi. Shundan so'ng, Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatining ma'zmuni bilan bilan tanishtirish uchun so'zni B.B.Samarxodjaevga berdi.

B.B.Samarxodjaev: B.B.Samarxodjaevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan shikoyat berganligini, lekin murojaati mazmunan Kengashda ko'rib chiqilishini keyingi majlisda qoldirishni so'radi.

Raislik etuvchi H-M.Isoqov B.B.Samarxodjaev o'z fikrini yakunlaganidan so'ng, mazkur masala yuzasidan kimda qanday taklif va mulohazalar borligini so'rab, majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolariga murojaat qildi. Kengash a'zolarida qo'shimcha taklif va mulohazalar bo'lmadi.

Shundan so'ng, raislik etuvchi Kengash a'zolaridan B.B.Samarxodjaevning 2026 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqilmasligi va Kun tartibidan olib tashlash yuzasidan ishini yuzasidan ovoz berishlarini so'rab, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. H-M.Isoqovning B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyati to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. B.B.Samarxodjaevning Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyati o'z xohishiga binoan ko'rmasdan qoldirilsin.

Raislik qiluvchi H-M.Isoqov kun tartibidagi **uchinchi masala** yuzasidan so'z olib, O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mablag'i hisobidan Akademiya almanaxini chop etish lozimligi, Jumladan Sud tizimi uchun yuqori malakali huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish, ta'lim, ilm-fan va amaliyot uzviyligini ta'minlash orqali professional sudyalar korpusini shakllantirish, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi ijrosini ta'minlash maqsadida Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi negizida O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tashkil etilganligini, sud tizimi uchun har tomonlama etuk, zamonaviy bilim va zarur kasbiy ko'nikmalarga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudya va sud apparati xodimlarining malakasini oshirish, rahbarlik lavozimlarini egallash uchun zaxirada bo'lgan sudyalarni qayta tayyorlash, ta'lim oluvchilarda sudyalik kasbiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish, bo'lajak sudyalarda mustaqil, xolis, beg'araz, faqat qonunga tayangan holda va adolat bilan ish yuritishning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol o'qitish uslublarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish, tinglovchi va talabalarda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ta'lim jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy qilish, sudyalik lavozimlariga nomzodlar, sudya va sud apparati xodimlarida zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, sud faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, shuningdek, sud-huquq sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, o'quv jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan idoralararo tajriba almashish, shuningdek, sud tizimi uchun huquqshunos kadrlar tayyorlovchi, shu jumladan, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash va sudyalar malakasini oshirishga ixtisoslashgan xorijiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun ushbu Akademiya almanaxini chop etish lozimligini aytib o'tdi, Shundan so'ng, haqida to'liq ma'lumot berish uchun so'zni Odillik me'zoni jurnali bosh muharriri A.Eshmurodovga berdi.

A.Eshmurodov: Assalomu alaykum hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mablag'i hisobidan Akademiya almanaxi chop etilishi lozimligini ta'kidlab, sud islohotlarni fuqarolar o'z hayotida

sezmoqda, Odil sudlov akademiyasi tashkil etilishini xorijiy ekspertlar muhim qadam sifatida e'tirof etmoqda deb, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.08.2025 yildagi PF-141-sonli Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarni keng jamoatchilikka etqazishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Shundan so'ng, raislik etuvchi Kengash a'zolaridan O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mablag'i hisobidan Akademiya almanaxi chop etish yuzasidan ovoz berishlarini so'rab, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. A.Eshmurodovning O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mablag'i hisobidan Akademiya almanaxi chop etish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mablag'i hisobidan Akademiya almanaxi chop etilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash Odillik me'zoni jurnali bosh muharriri A.Eshmurodov zimmasiga yuklatilsin.

Raislik qiluvchi H-M.Isoqov kun tartibidagi **to'rtinchi masala** yuzasidan so'z olib, Kengash a'zolariga "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining kasbiy qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganligi to'g'risidagi sertifikat"i Namunasi junatilganligini ma'lum qilib, qisqacha kasbiy qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganligi to'g'risidagi sertifikat haqida ma'lumot berdi.

H-M.Isoqov o'z fikrlarini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolaridan mazkur masala yuzasidan qanday qo'shimcha taklif va mulohazalar borligini, agar taklif va mulohazalar bo'lmasa, "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining kasbiy qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganligi to'g'risidagi sertifikat"i namunasi loyihasini tasdiqlash taklifini kiritib, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. H-M.Isoqovning O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining kasbiy qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganligi to'g'risidagi

sertifikat namunasini tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining kasbiy qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganligi to'g'risidagi sertifikat namunaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti decani X.Azizovga yuklatilsin.

Raislik qiluvchi kun tartibidagi **beshinch** masala yuzasidan, so'zni ma'lumot berish uchun **S.Xolboyev**ga berdi.

S.Xolboyev: Assalomu alaykum hurmatli Odil sudlov akademiyasi Kengashi a'zolari, hurmatli Raislik etuvchi. Yuqorida Raislik etuvchi H-M.Isoqov ta'kidlaganidek, Odil sudlov akademiyasi professor-o'qituvchilaridan Berdiyarov Rahmatjon Tojinorovich, Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li, Obidov Tolib Avazxonovichlar dotsent vazifasini bajaruvchi unvoniga o'z nomzodini ilgari surgan.

Kun tartibidagi ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016 yil 28 apreldagi "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2793-son qaroriga ilova bilan tasdiqlangan "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risida"gi nizomga murojaat qiladigan bo'lsak, ushbu Nizomning 12(g)-bandiga ko'ra, professor ilmiy unvonini olish uchun kamida bir o'quv yili davomida ta'lim muassasasining shtatida kafedra mudiri, professor (vazifasini bajaruvchi), oliy harbiy hamda harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kafedra boshlig'i o'rinbosari yoki kafedra boshlig'i lavozimlarida yoki ushbu lavozimlardan birida bir o'quv yili davomida kamida 0,25 stavka o'quv yuklamasini bajargan holda pedagogik faoliyat olib borayotgan muassasa rektori (direktori, boshlig'i), prorektori (direktor o'rinbosari, boshliq o'rinbosari), ilmiy kotibi, ta'lim muassasasining o'quv-tashkiliy tuzilmasi (fakultet, bo'lim) rahbari lavozimlarining birida muvaffaqiyatli ishlab kelayotgan (lavozimida ijobiy o'zgarish bo'lgan hollarda avvalgi lavozimida ishlash muddati ham e'tiborga olinadi) mutaxassislariga beriladi.

Nizomning ushbu talabidan kelib chiqqan holda, Akademiya professor-o'qituvchilaridan yu.f.f.d(PhD) Berdiyarov Rahmatjon Tojinorovich, yu.f.f.d(PhD) Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li, yu.f.f.d(PhD) Obidov Tolib Avazxonovichlar kamida bir o'quv yili davomida ta'lim muassasasining shtatida professor vazifasini bajaruvchi lavozimida faoliyat ko'rsatishi lozim bo'ladi.

S.Xolboyev o'z fikrini yakunlagandan so'ng, raislik etuvchi mazkur masala yuzasidan kimda qanday taklif va mulohazalar borligini so'rab, majlisda ishtirok

etayotgan Kengash a'zolariga murojaat qildi. Ushbu masala yuzasidan Kengash a'zolari tomonidan qo'shimcha fikr va mulohazalar bo'lmadi.

Shundan so'ng, Raislik etuvchi yuqorida qayd etilgan talabdan kelib chiqqan holda Kengash a'zolaridan Akademiya professor-o'qituvchilaridan yu.f.f.d(PhD) Berdiyarov Rahmatjon Tojinorovich, yu.f.f.d(PhD) Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li, yu.f.f.d(PhD) Obidov Tolib Avazxonovichlar dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga tavsiya etishni yoqlab ovoz berishlarini so'rab, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILADI:

1. S.Xolboyevning Odil sudlov Akademiya professor-o'qituvchilaridan yu.f.f.d(PhD) Berdiyarov Rahmatjon Tojinorovich, yu.f.f.d(PhD) Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li, yu.f.f.d(PhD) Obidov Tolib Avazxonovichlarni dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga tavsiya etish haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Odil sudlov Akademiya professor-o'qituvchilaridan yu.f.f.d(PhD) Berdiyarov Rahmatjon Tojinorovich, yu.f.f.d(PhD) Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li, yu.f.f.d(PhD) Obidov Tolib Avazxonovichlar dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga tavsiya etilsin va tegishli tartibda buyruq bilan rasmiylashtirilsin.

Raislik qiluvchi H-M.Isoqov **oltinchi masala** yuzasidan so'z olib, majlis ishtirokchilarini O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov akademiyasi tomonidan Psixolog, Mantiq fani o'qituvchisi, Akademik yozuv ko'nikmasi fani o'qituvchisi, Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi, Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi lavozimiga tanlov e'lon qilinganligi, tanlov ikki bosqichli sinov asosida o'tkazilishi ya'ni da'vogarlik qilayotgan mutaxassisligi bo'yicha birinchi bosqich test va ikkinchi bosqich ochiq dars mashg'ulotidan iborat ekanligi haqida aytib o'tdi. Shundan so'ng, nomzodlarning shaxsi haqida to'liq ma'lumot berish uchun so'zni Odil sudlov akademiyasi kengashi kotibi F.Madiyevga berdi.

F.Madiyev: Assalomu alaykum hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi tomonidan "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi" lavozimiga tanlov e'lon qilingan edi.

Birinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

1.Mavlanov Kamoliddin To'ychievich. 1990-yilda Jizzax viloyati, G'allaorol tumanida tug'ilgan. Ilmiy darajaga ega. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa

doktori. Toshkent davlat yuridik universitetining Jinoyat -protsessual huquqi kafedrası katta o'qituvchisi.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, K.Mavlanov yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulot Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi" lavozimiga ikkinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

2. Obidov Rahimjon Obidovich. 1967-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Ilmiy darajaga ega. Yuridik fanlar nomzodi, dotsent. Toshkent davlat agrar universitetining Huquqshunoslik kafedrası dotsenti.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, R.Obidov yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulot Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi" lavozimiga uchinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

3. Toshev Otabek Sodikovich 1976-yilda Buxoro viloyati, Olot tumanida tug'ilgan. Ilmiy darajaga ega. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori. Toshkent davlat yuridik universitetining Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası katta o'qituvchisi.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, O.Toshev yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulot Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi tomonidan "Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi" lavozimiga tanlov e'lon qilingan edi.

Birinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

1. Eshimbetov Baxtiyor O'razboyevich. 1974-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Amudaryo tumani tumanida tug'ilgan. "O'z paxtasanoat" AJ Yuridik boshqarmasi boshlig'i sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, B.Eshimbetov yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi.

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi "Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi" lavozimiga ikkinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

2. Babakulov Aliqul Gapparovich. 1955-yilda Samarqand viloyati Bulung'ur tumani tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, A.Babakulov yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi.

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi tomonidan "Akademik yozuv ko'nikmasi fani o'qituvchisi" lavozimiga tanlov e'lon qilingan, talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

Najmidinova Nilufar Yuldoshovna 1984-yilda Buxoro shahri, Vobkent tumani tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi SLPE bo'limi yetakchi davlat sud eksperti.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, N.Najmiddinova yigirma daqiqalik vaqt mobaynida ularning o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi tomonidan "Psixolog" lavozimiga tablov e'lon qilingan, talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

Dosjanova Yulduzخان Raxatovna. 1986-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi din psixologiyasi va pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, Y.Dosjanova yigirma daqiqalik vaqt mobaynida ularning o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 avgustdagi "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-141-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ustavining 11, 20-bandlariga muvofiq Kengash

QAROR QILDI:

1. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov akademiyasining "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi", "Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi", "Akademik yozuv ko'nikmasi fani o'qituvchisi" va "Psixolog" lavozimlariga nomzodlarni tanlash bo'yicha "ma'ruza (ochiq mashg'ulotlar)" o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash prorektor v.v.b D.Aripov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash kotibi:

F.Madiyev